

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA ANTROPONIMIK KOMPONENTLI FRAZELOGIK BIRLIKLARNING KONSEPT TAHLILI

G'oyibov Umarjon Alisher o'g'li

umar.goyibov@mail.ru

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya. Frazelogik birlik bu – kognitiv nuqtayi nazardan muayyan konseptlarni tilda verballashtirish imkoniyatiga ega ikki yoki undan ortiq so'zlardan iborat turg'un so'z birikmalaridir, jumladan *lose one's touch, a far cry from, ko'kka sovurmoq, so'xtasi sovuq* kabilar. Frazelogik birliklar tarkibida antroponimik komponentlar kognitiv nuqtayi nazardan muayyan bir xalq to'g'risida ensiklopedik axborot tashuvchi ahamiyatga ega bo'lib, antroponimlarga xos xususiyatlar asosida muayyan konseptlarni tilda verballashtiradi. Mazkur maqolada esa ingliz va o'zbek tillarida antroponimik komponentli frazeologik birliklarning konsept tahlili haqida so'z yuritilib, ularga munosabat bildiriladi.

Kalit so'zlar: frazeologik birlik, antroponimik komponent, konsept, konsept tahlili, ensiklopedik axborot, assotsiativ ma'no, metaforik ma'no.

Abstract. From a cognitive viewpoint, a phraseological unit is a fixed word combination, consisting of two or more words, which has the opportunity to verbalise certain concepts in language, including *lose one's touch, a far cry from, ko'kka sovurmoq, so'xtasi sovuq*. In the structure of phraseological units, anthroponymic components have the importance of carrying encyclopedic information about a particular people from a cognitive point of view, verbalizing in language certain concepts on the basis of features inherent in anthroponyms. This article will discuss the concept analysis of phraseological units with anthroponymic components in English and Uzbek.

Keywords: phraseological unit, anthroponymic component, concept, conceptual analysis, encyclopedic information, associative meaning, metaphorical meaning.

Аннотация. С когнитивной точки зрения, фразеологическая единица - это устойчивое словосочетание, состоящее из двух или более слов, которое имеет возможность вербализовать определенные концепты в языке, в том числе *lose one's touch, a far cry from, ko'kka sovurmoq, so'xtasi sovuq*. В структуре фразеологизмов антропонимические компоненты имеют значение несущих энциклопедическую информацию о конкретном народе с когнитивной точки зрения, вербализующих в языке определенные понятия на основе признаков, присущих антропонимам. В данной статье будет рассмотрен концептуальный анализ фразеологических единиц с антропонимическими компонентами в английском и узбекском языках.

Ключевые слова: фразеологическая единица, антропонимический компонент, концепт, концептуальный анализ, энциклопедическая информация, ассоциативное значение, метафорическое значение.

Ingliz va o'zbek tillarining frazeologik qatlami tarkibidagi antroponim komponentlar muayyan diniy rivoyatlarda tilga olingan obrazlar, tarixiy shaxslar, mifologik va badiiy obrazlar hamda xalq og'zaki ijodi va afsonalarida tasvirlangan qahramonlarning o'ziga xos sifatlari haqidagi qomusiy axborotning kishi ongida aktivlashishiga katta hissa qo'shadi. Bundan tashqari, antroponimlar ikki xil madaniyatga mansub ingliz va o'zbek tillarida shaxs xarakteristikasi, aqliy salohiyati, tashqi ko'rinishi, mehnat faoliyati, ijtimoiy holati kabi tushunchalarning inson ongida konseptuallashtirishida muhim rol o'ynaydi. Masalan, ingliz tilida *A Judas kiss*; *Solomon's wisdom*; *The brand of Cain* kabi frazeologik birliklar tarkibida kelgan antroponimlar kishi ongida bevosita Bibliyada tasvirlangan obrazlar bilan bog'liq diniy rivoyatlarni gavdalantirsa, o'zbek tilida *Xizr nazar qilgan*; *Iso ham o'z yo'liga*, *Muso ham o'z yo'liga*; *Sulaymon o'ldi*, *devlar qutuldi* kabi frazeologik birliklar tarkibida kelgan antroponimlar kishi ongida bevosita payg'ambarlar bilan bog'liq rivoyatlar faollashadi.

Inson obyektiv borliqni bilish jarayonida o'zi kuzatayotgan voqea-hodisalarning o'ziga xos xususiyatlarini ajratib oladi, so'ngra esa mazkur xususiyatlarning umumiy va o'xshash jihatlari vositasida ikki obyektни bir-biriga taqqoslaydi. Buning natijasida yangi hosila ma'noga ega bo'lgan hamda qisman yoki to'liq ko'chimga uchragan frazeologik birliklarni shakllantiradi. Ingliz va o'zbek tillaridagi antroponimik komponentli frazeologik birliklar shular jumlasidan bo'lib, ularning tarkibida ishtirok etgan antroponimlarga xos xususiyatlar hamda ular to'g'risidagi ensiklopedik axborot asosida muayyan konseptlarni shakllantirish mumkin. Masalan, tarkibida tarixiy antroponim ishtirok etgan ingliz tilidagi *The Admirable Crichton* frazeologik birligi keng fikrli, aql-zakovatli va uzoqni ko'ra oladigan hamda barcha fanlardan xabardor shaxsni tasvirlab keladi. Mazkur frazeologik birlik nega aynan keng fikrli, aql-zakovatli, barcha fanlardan xabardor shaxsni tasvirlab kelishini uning tarkibida ishtirok etgan *Crichton*, ya'ni Krayton antroponimi bilan bog'liq ensiklopedik ma'lumotga nazar solamiz. Jeyms Krayton 1560-1582-yillarda yashagan shotlandiyalik serqirra bilim sohibi ekanligi tarixdan ma'lum. Uning har taraflama bilimli shaxs ekanligiga asoslanib quyidagi konseptual komponentlarga ega bo'lamiz: 1) bilimi - o'n va o'n to'rt yoshlarida bakalavr hamda magistr dasturlarini o'qib bitirgan; 2) yutuqlari – til, san'at va ilm-fan sohalarida erishgan aql bovar qilmas darajadagi yutuqlari tufayli dong taratgan; 3) atributi – takrorlanmas iste'dod; 4) adabiyot – uning mazkur takrorlanmas iste'dodi tufayli Semyuel Jonson, Charlz Dikkenz, Vilyam Tekerey, Jeyms Berri kabi taniqli adiblar o'z asarlarida uni *The Admirable Crichton* sifatida tanitgan. Tarkibida tarixiy antroponim ishtirok etgan o'zbek tilidagi *Aflotun miya* frazeologik birligi bilimdon, juda aqlli va donishmand kishini tasvirlaydi. Tarixdan ma'lumki, Aflotun miloddan avvalgi V-IV asrlarda yashagan qadimgi yunon faylasufi, serqirra bilim sohibi hamda donishmand sanalib, aynan mana shu jihatlari orqali quyidagi konseptual komponentlarga ega bo'lamiz: 1) faoliyati – ustozlari Suqrot va shogirdi Arastu bilan birgalikda Aflotun G'arb madaniyatini shakllantirgan, Afinadagi ilk akademiyaga asos solgan, falsafa sohasida platonizm g'oyasiga asos solgan; 2) bilimi –

pedagogika, adabiyot, falsafa fanlarini chuqur o'zlashtirgan; 3) atributi – “ilohiy ustoz”, xristian dunyoqarashining muboshiri, sof sevgi faylasufi va siyosiy xayolparast sifatida tanilgan. Ingliz va o'zbek tillaridagi mazkur frazeologik birliklar bevosita insonning aqliy salohiyatini anglatuvchi INTELLEKT konseptini hosil qiladi.

Shuningdek, ingliz va o'zbek tillarida antroponimik komponentli frazeologik birliklar bevosita INSON konseptini tasvirlashdan tashqari PREDMET, ISH-HARAKAT, MAKON, ZAMON, KULGI, QAROR, G'ALABA, YANGGLISH, VAHIMA, XIYONAT, QARG'ISH, ERKINLIK, ISTAK, OJIZLIK, REJA, QASOS, SAROB, XAVOTIR, GO'ZALLIK, TENGLIK, BIRDAMLIK singari turli-tuman konseptlarni hosil qilish imkoniyatiga ega ekanligi aniqlandi. Biz mazkur konseptlarni shakllantiruvchi antroponimik komponentli frazeologik birliklarga oid misollarni quyidagi jadvalda ko'rishimiz mumkin:

Konsept	Ingliz tilidagi antroponimik komponentli frazeologik birliklar	O'zbek tilidagi antroponimik komponentli frazeologik birliklar
Xulq-atvor	<i>Lady Bountiful; A Mark Tapley; As game as Ned Kelly; As patient as Job</i>	<i>Borida – Hotam, yo'g'ida motam; Ishni Ismat qiladi, lofni Toshmat uradi; Padarkush Abdullatif; Iskandar xo'ja, bulturgi jo'ja, bola ochadi, tashlab qochadi</i>
Intellect	<i>A Daniel come to judgement; According to Cocker; The admirable Crichton</i>	<i>Aflotun miya; Aql – Hasan, odob – Husan</i>
Qobiliyat	<i>Bend the bow of Ulysses; Cordelia's gift; Herculean task; The Midas touch</i>	
Ruhiyat	<i>As happy as Larry; Weary Willie; As proud as Punch</i>	
His-tuyg'u	<i>By George; What will Mrs Grundy say?; Play it again, Sam</i>	<i>Jabbor chalsin seni; Xizrni yo'qlasam bo'larkan; Muhammad payg'ambar madadkor bo'lsin</i>
Tashqi ko'rinish	<i>A Beau Brummell; Tom Thumb; Vandyke beard; Billy Bunter</i>	<i>Ashir tarnov</i>
Faoliyat	<i>Tom Tailor; Jack Ketch; Pooh Bah; G. I. Jane; Cheap Jack; Jack at a pinch; Mother Bunch; A girl Friday</i>	<i>Kelinlik Bedilxonlikdan qiyin</i>
Laqab	<i>The Father of English poetry; The Father of English printing; The Virgin Queen</i>	
Ijtimoiy	<i>Damon and Pythias; Sister</i>	<i>Hasan aka quysin, Qo'chqor aka</i>

munosabat	<i>Anne; A good Jack makes a good Jill</i>	<i>ichsin</i>
Ijtimoiy-iqtisodiy ahvol	<i>As rich as Croesus; As poor as Job</i>	
Predmet	<i>A banquet of Lucullus; A Benjamin's portion; Joe Miller; Fortunatus' purse; Teddy bear</i>	<i>Bazmi Jamshid; Olovuddinning sehrli chirog'i</i>
Ish-harakat	<i>Rob Peter to pay Paul; Appeal from Philip drunk to Philip sober; Keep up with the Joneses</i>	<i>Ali desa, Bali demoq; Rustami doston bo'lmoq; Jonini Jabborga bermoq</i>
Makon	<i>An Aladdin's cave; Tom Tiddler's ground; Round Robin Hood's barn; Davy Jones' locker</i>	<i>Mirzai azimda ming Xorunning xazinasi-yu, tuman Jamshidning davlati bor</i>
Zamon	<i>Since Adam was a boy; As old as Methuselah; Saint Bartholomew's Day Massacre; Before you can say Jack Robinson</i>	<i>Daqqiyunusdan qolgan; Odam Atodan qolgan; Amir Temurdan qolgan; Ayamajuz – olti kun, qahr aylasa qattiq kun</i>
Sarob	<i>A Barmecide feast; Alnaschar's dream</i>	
G'alaba	<i>A Cadmean victory; A Pyrrhic victory</i>	
Xiyonat	<i>A Judas kiss</i>	
Tafakkur	<i>A King Charles' head</i>	
Intizom	<i>According to Cocker; According to Hoyle</i>	
Nafs	<i>Bacchus has drowned more men than Neptune</i>	<i>Qizilni ko'rsa Xizr ham yo'ldan ozadi</i>
Xavf-xatar	<i>Cassandra warnings; Daniel in the lion's den; Katie bar the door</i>	<i>Yettining biri - Xizr</i>
Yanglish	<i>Homer sometimes nods; A Freudian slip</i>	
G'azab	<i>Like the devil looking over Lincoln</i>	
Muhabbat	<i>Platonic love</i>	<i>Layli – har kimning mayli</i>
Go'zallik		<i>Laylini ko'rish uchun Majnunning ko'zlari kerak</i>
Hayot	<i>The life of Riley</i>	

Xavotir	<i>What will Mrs. Grundy say?</i>	
Vahima		<i>Bo'ji keldi, bo'ji keldi, Chingiz bilan Jo'ji keldi</i>
Janjal		<i>Ali jinni, Ali jinnining bari jinni; Oti yomon - Oypora</i>
Tenglik	<i>Even Stephens</i>	<i>Alixo'ja - Xo'jaali</i>
Sabr	<i>The patience of Job</i>	<i>Omon bo'lsak ko'ramiz Halimaning holini</i>
Erkinlik		<i>Sulaymon o'ldi – devlar qutuldi</i>

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, ingliz va o'zbek tillarida antroponimik komponentli frazeologik birliklar tarkibidagi antroponimlar bilan bog'liq ensiklopedik axborot va assotsiativ ma'no vositasida ular xulq-atvor, intellekt, qobiliyat, ruhiyat, his-tuyg'u, tashqi ko'rinish, faoliyat, laqab, ijtimoiy munosabat, ijtimoiy ahvol, abstraktsiya, predmet, artefakt, oziq-ovqat, ish-harakat, makon va zamon singari turli-tuman konseptlarni hosil qilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdusamadov Z.N. Ingliz va o'zbek tillarida antroponimik komponentli frazeologik birliklarning milliy-madaniy xususiyatlari: filol. fanl. falsafa dokt. (PhD) diss. – Toshkent: O'zMU, 2022. – 132 b.
2. Ashurova D., Galiyeva M. Cognitive linguistics. – Tashkent: VneshInvestProm, 2018. – 160 p.
3. Khudoyorova S.T. Semantic and etymological classification of English and Uzbek phraseological units with personal names // Theoretical and Applied Science: Philadelphia. – 2020. - №7 (87). – 227-230 p.
4. Nasrullayeva G.S. Antroposentrik metaforaning lisoniy, kognitiv va lingvomadaniy aspekti: filol. fanl. falsafa dok-ri (PhD) diss. – Farg'ona, 2019. – 139 b.
5. Yuldashev A.G. Idiomatik qo'shma so'zlarning lingvokognitiv aspekti (ingliz va o'zbek tillari misolida): filol. fanl. falsafa dokt. (PhD) diss. – Toshkent, 2017. – 144 b.

